

GILAM TO’QISH SAN’ATI VA TARIXI

*Andijon davlat pedagogika instituti Fizika va texnalogiya fanlar kafedra
o‘qituvchisi*

Mamajonova Guluzro Abdurashitovna

v/b dotsent

*Andijon davlat pedagogika institutining Texnologik talim yo‘nalishi 2-
bosqich talabasi*

Baxodirova Sapura Muhammad Shokir qizi

*Andijon davlat pedagogika institutining Texnologik talim yo‘nalishi 2-
bosqich talabasi*

Mirzayeva Nargiza Ibragimjonovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi har bir hududi o‘zining naqshinkor gilamlari va gilam to‘qish an‘analari, usullari, sirlari boshqa ishlov berish texnologiyasiga o‘xshamagan jozibadorligi va yuksak saviyadagi kompozitsiyalari bilan ajralib turadi.*

Kalit so‘zlar: *Grebek, XX, dexqonchilik va ziroatchilik, mayda buyumlarning naqsh bezaklari, Ekspeditsiya.*

XX – asrning boshlarida Samarqand viloyati xududlarida 50 ga yaqin o‘zbek qabilalari yashashgan. Bir qabila axolisi birlashib, ikkinchi qabila esa tarqoq xayot kechirishgan, ular bir-birlari bilan doimo ko‘rishib turishgan.

Grebekinning ma’lumotlariga qaraganda, XIX – asrning oxirida gilam to‘qish san’ati quyidagi o‘zbek qabilalari: naymon, ming, qutchi, bag‘rin, xitoy, qipchoq, mitan, turk.

O‘zbek qabilalariga yana qoraqalpoqlar ham kirgan. Ular paxmoq gilamlar (pat gilam) va boshqa gilam buyumlari to‘qilgan. O‘zbek gilam mahsulotlarini to‘liq ta’riflamay turib, A.D.Gerbenkin mitan gilam to‘quvchilarining ishlarini quyidagilarini ajratadi: gilamlar, olacha, gilam, kigiz, namat, xurjunlar va boshqalar.

U Samarqand atrofi va eskiXo‘jant chegaralarida yashagan yarim ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari turk va yuz axolisining gilam to‘quvchilarini xaqida ma’lumot bergan. A.A.Semyonov A.D.Gerbenkinning ma’lumotlarini tasadiqlagan va kengaytirgan.

Samarqand viloyatining turk gilam ustalari eng oddiy texnika bilan rangli palaslar namatlar va juda og‘ir ish talab qiladigan gadjari palaslarini to‘qishgan, deb yozadi. M.F.Gavrilov. u boshqa ishida parchayuz o‘zbek qabilasi

xaqida to'liq ma'lumot berojan, u ma'lumot juda qiziqarli o'zilgan. Lekin Gerbenkin o'zining ma'lumotlarida yuz gilam to'quvchilari xaqida eslatgan. Bir necha mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra o'zbek gilam to'quvchi guruxlaridan eng qadimgi qabila vakillari aloxida qiziqish uyg'otgan. (Turk va tuyoqli) shuningdek, o'rta osiy xududlarida yangi joylashgan boshqa tuman aholilari: mitan Yevropaning janubiy sharqish cho'llarini o'zlarining qadimiy vatanlari xisoblaganlari, bag'rim Farg'ona vodiysining sharqiy tumanlaridan chiqgan; qutchi Qoshg'aradan ko'chib kelgan. Turli nasabdagi qabilalar gilam to'qish bilan shug'ullanganlar.

Barcha tadqiqotchilar takidlashicha turli qabila guruxlarining o'zaro nikoxi o'ziga xos madaniyat va udumni anglatgan. O'zaro nikoxlarda bir qabila boshqa qabilaga o'ziga xos tarizda to'qilgan. Turli gilam ishlarini taqdim etishgan. Bu gilamlarda qabilalarning o'ziga xos naqshlari ishlatiladi, bu esa oilaning bir biriga vafodor bo'lishini birdirib, keyinchalik xo'jalik zaruriyati uchun ishlatiladi.

Asta sekin kirib kelayotgan dexqonchilik va ziroatchilik ishlari gilamchilikning sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. Statistik va arxiv ma'lumotlariga qaraganda, XIX – asrning oxiri va XIX – asrning 70-yillarda Samarqand tumanining o'zbek gilam to'quvchi qabilalari bor yo'g'i 25 %ni tashkil qilardi. Yil davomida bir necha qishloqning gilam ishlari 10 chog'lik gilam va palaslarni tashkil etardi: bozorda esa bu gilam ishlarining aksariyatini ko'rish mumkin edi.

Gilam ishlab chiqarishning qisqarish protsesi XX – asrning boshlarigacha davom etdi.

Tekshirilayotgan ovullarda pat – gilam maxsulotlarining faqatgina qadimgi namunalari mavjud edi. Ekspeditsiya azolari bu pat-gilamlarning to'qilishini va unda qo'llanilgan naqshlarning namunalarni biladigan gilam to'quvchi uchratishmadni. Shuningdek bu pat gilamlarda qo'llaniladigan asbob uskunalar xam saqlanib qolmagan. Ancha og'ir texnika bilan ishlanadigan palaslar ishlab chiqarmay qo'ygandi, ammo bu palos texnikasi ko'pgina ayollarga xali tanish edi. Ko'pchilik ayollar palos maxsulotlari naqshlarining faqatgina texnik namlanishini bilishardi. Bular “Yettita ipli”, “To'rtta ipli” maxsus nomlari esa deyarli unitilib ketgandi. Biroq xamma gilam palos ishlari yerlik axolining ishlari edi. Ularni katta avlod ayollar to'qishgan. 20 yillarda faqatgina oddiy yo'l-yo'l palos va kojimalar tayyorlangan. Ovullarda ayollar gilam ishlarini sotish uchun emas, balki o'zlarining xo'jalikda ishlatish uchun to'qishgan. Lekin Zomin va Jizzax aholisining gilam to'quvchilari sotish uchun

xam gilam palos mahsulotlarini tayyorlashgan. (Zomin, Ravot, Ko‘rpasat, Qayli, Yoyishla)

Samarqand tumanining o‘zbek guruxlari turli gilam ishlari patli va patsiz (palos) gilamlar to‘qishgan.

Patli paxmoq maxsulotlar texnik ma’lumotiga va badiiy qiyofasiga qarab ikki guruxga bo‘linadi: uzun patli va kalta patli gilamlar.

Uzun patli gilamlar- to‘shaladigan gilamlar bo‘lib, ular katta o‘lchamda bo‘lgan: julxirs, julvarak.

Kalta patli gilamlar esa yetarlicha xilma – xil bo‘lgan. Ularga to‘shaladigan mayda gilamlar , paloslar va boshqa mayda xo‘jalik buyumlari kirgan.

Kalta patli gilam ishlarining bajarilish texnikasi o‘zbek axolisi o‘rtasida patli gilamga qaraganda keng tarqalgan.

To‘shaluvchi gilamlar xar doim katta o‘lchamda to‘qilgan, uzunligi 2,0 – 2,5 m, eniga 1,2 – 1,4 m. Ularni asosan xo‘jalik extiyoji uchun to‘qishgan. Avvaliga bu gilam ishlariga faqatgina shaxar axolisi etibor bergen, keyinchalik o‘rta osiyoning boshqa viloyatlari va qo‘shti mamlakatlardan xam Samarqand gilam bozoriga qiziqish kuchaygan.

Maxsus gilamlar tayyorlangan – ibodat qilinadigan, eshiklar ichki tarafiga ilinadigan, eshik tepasiga ilinadigan. Kata xonalarning etagigacha to‘shaladigan, o‘rindiqlar uchun, xovli yoki bog‘ uchun ishlangan materiallar paloslar, sholchalar va koxmalar va turli texnikalar bilan bajarilgan.

O‘zbek qabilalari orasida mayda gilam maxsulotlari sezilarli darajada turli ishlab chiqarilgan. Jixozlar va asbob uskunalarini biriktirilib turish uchun yurt qabilasi turli xil gilamli tasmalar, gilam payandozlar – kurt, baskurt va boshqa maxsulotlar to‘qilgan. (rasm - 20). Ularni nafaqat qishloq axolisi balki shaxarliklar, asosan ruslar turli yumshoq mebellarning jixozlari, yostiqchalari, boshqa tur meballarga ishlatish uchun xam sotib olishgan. XX – asrning boshlariga kelib ularni ishlab chiqarish keskin kamaydi. Gilam payandozlarining qadimiyligi andozalari xozirgacha saqlanib qolmagan, ular yuqori badiiy sifati bilan ajralib turgan, axoli esa ulardan o‘lchami katta bo‘lmagan to‘shaladigan gilamlar va narsalar uchun qoplar, sumkalar tayyorlashgan. Afsuski bu qiziqarli gilam ishlari juda sust o‘rganilgan.

Axolining turmushi uchun ishlatiladigan katta buyum qoplar – napramach xam kirgan. (rasm - 21). Napramachni tayyorlash uchun, xuddi boshqa sumka va qoplarda ishlatilgandek, faqatgina yuza tomonlarigagina gilam maxsulotlari ishlatilgan, ikkinchi tarafiga oddiy, bezaksiz, jun materiallardan qo‘yilgan. Napramachning yuza tomoni - bu

Bo‘yiga 0,9 – 1,2 m, eniga 0,35 – 0,40 m.

Bu esa 20 – 30 yillarda O‘zbekiston muzeylarida napramaklarining katta koleksiyasining yig‘ishga yordam berdi. Qadimiy mayda ishlar ichidan aloxida ajralib turadigan boy bezatilgan, otlar uchun gilam yopinchiqlar oddiy palos texnikasi orqali bajarilgan.

Qadimiy xurjunlarning katta qismi palos texnikasi orqali bajarilgan. (rasm 22). Paxmoqlar esa yordamchi vositalar sifatida naqshlarni tikish uchun ishlatilgan. XX – asrning boshlarida xurjunlar uchun paxmoqlar to‘liq ishlatila boshladi.

To‘rva va xurjunlar xo‘jalik kamchiliklari uchun ishlab chiqarilgan, judayam kam xollarda bozorga chiqgan. Respublika muzeylarida ular juda oddiy napramachilar ko‘rinishida taqdim etilgan.

Qadimiy mayda buyumlarning naqsh bezaklari spetsipik chizmalardan farq qilgan. Ko‘pgina badiiy prinsiplari o‘ziga xos ko‘rinishdagi aniqligini yo‘qotgan. Xuddi shunday qadimiy yurt yo‘lakchalari nusxalarining markaziy maydonlari bir xil tipdagi kashtalarning 2 taraflama kashta qatorlari Bilan chegaralangan (ris.20); keyingi buyumlarda bu prinsip bir muncha o‘zgartirilgan: yo‘lakchalarning aloxida qismi kaymasiz yoki turli naqshlar bilan tikilgan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Jabborov «o‘zbek xalq etnografiyası» T-1994-52-82-b.
2. T. Xo‘jayev. K.Abdullayev «Ajdodlar qiyofasi» Turkiston gaz. 92.26.IX.
3. M.Rustomov«O‘zbekiston etnografiyasi»Tosh;1991I-IV jild.
4. Ostraumov. N.P. Sartu T. 1908.
5. Tolstov. S.P. «qadimiy Xorazm mad. izlab»T. Fan 1957.
6. I. Jabborov «o‘zbek xalq etnografiyası». Tosh.199487-99 6. U. qaroboyev «o‘zbek bayramlari» T. 1991.
7. www.e-tarix.uz